

BADIIY MATN ESTETIK BUTUNLIK SIFATIDA

Maloxat Raximova

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

rahimovamalohat585@gmail.com

Abstract: This article explores the development, subject matter, and methodological foundations of the field of linguopoetics. It analyzes the interrelation and poetic functions of linguistic levels—phonetic, lexical, morphological, syntactic, and compositional—in constructing a literary text as an aesthetic whole. The study also highlights the historical development of the linguopoetic approach in Uzbek linguistics, examining the legacy of thinkers such as Alisher Navoi and Izzat Sultan as subjects of linguopoetic analysis.

Keywords: *linguopoetics, literary text, language levels, aesthetic integrity, phonopoetics, syntactic poetics, expressiveness, poeticity*

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvopoetika fanining shakllanishi, predmeti va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Badiiy matnning estetik butunlik sifatida yaratilishida til sathlarining (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va kompozitsion) o'zaro uyg'unligi hamda ularning poetik vazifalari ochib beriladi. Tadqiqotda o'zbek tilshunosligida lingvopoetik yondashuv tarixiy taraqqiyot doirasida yoritilib, Alisher Navoiy, Izzat Sulton kabi mutafakkirlar merosi lingvopoetik tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *lingvopoetika, badiiy matn, til sathlari, estetik butunlik, fonopoetika, sintaktik poetika, ekspressivlik, poetiklik*

Kirish. Til – inson uchun eng muhim omil hisoblanadi. Chunki insonlar til orqali bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar. Bundan tashqari, til – insonlarning o'y – fikrlari va his – tuyg'ularini ifodalashning yagona va muhim vositasi. Til jamiyat a'zolari uchun umumiy bo'lib, barchaga baravar xizmat qiladi. Tilning tabiati, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi va bu strukturani tashkil etgan struktura elementlarining o'zaro munosabati uning ichki munosabati, ishlash tamoyillarini, tilning o'rganilganlik darajasini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda tilshunoslik fanining doirasi tobora kengayib bormoqda va fanning yangidan-yangi psixolingvistika, sotsiolingvistika, antropolingvistika, generativ lingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi qator tarmoqlarining paydo bo'lishi, bir tomondan, fanning obyekti, tilning ko'p aspektli hodisa ekanligini ko'rsatib tursa, ikkinchi tomondan, fan taraqqiyotining ko'rsatkichi hamdir. Tilshunoslik fanining predmeti tushunchasi ilmiy abstraksiya natijasi bo'lib fanning taraqqiyoti, uning amaliy ahamiyati insoniyat ehtiyojini qay darajada qondirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Lingvopoetika – tilshunoslik va adabiyotshunoslikni bog'lovchi oltin halqa. Tilning ekspressiv vazifasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikni baravar qiziqtiruvchi obyekt sanaladi. Badiiy nutqning asosiy belgilaridan biri ekspressivlikdir. Ekspressivlik xususiyatlari lingvistik qonuniyatlariga tayangandagina ilmiy asosga ega bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik oraliq'ida alohida fan yo'nalishi maydonga keldiki, bu yo'nalish lingvopoetika nomi bilan yuritila boshlandi. Lingvopoetika qisqargan shakl bo'lib, poetik lingvistika yoki badiiy nutqning lingvistikasidir.

Lingvopoetika til strukturasining barcha sathlarini qamrab oladi, chunki tilni barcha sath birliklari tinglovchiga ta'sir qilish quvvatiga ega, hatto o'zi alohida ma'no ifodalamaydigan birliklar ma'noli birliklar tarkibida kelib ularning ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan fonemalar ana shunday vazifadan holi emas. Shuning uchun ham tilning qaysi sath birliklari ekspressiv vazifa bajarayotganiga ko'ra lingvopoetika ham bir necha ichki qismlarga bo'linadi. Ular fonopoetika, morfopoetika va sintaktikpoetika va boshq. Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvopoetika til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy estetik vazifasini tekshiradi. Deylik, fonologik sathda fonetik birliklarning badiiy estetik vazifasi, xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning takrorlanishi she'riyatda ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sifatida qo'llanishi bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratiladi. Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishi (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, mubolag'ali tagma'nolilik jihatlar), omonimik, sinonimik munosabatlar va boshqa shu kabi leksik-semantik hodisalar ham lingvopoetikaning tekshirish obyekti hisoblanadi. Shuningdek, gap bo'laklarining o'rin almashishi, gap tarkibida bir xil bo'lakning takrorlanishi kabi hodisalar badiiy nutqning shakllantirishda xizmat qiladi.

Ma'lumki, o'zbek tilining bir necha asrluk behad boy tarixida badiiy til masalasiga bo'lgan e'tibor hech qachon susaygan emas. Birgina A. Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" asarini olib ko'raylik. M. Qodirov juda o'rinli ta'kidlaganidek, "Muhokamatul lug'atayn"ning biz tilshunos va adabiyotshunoslarga o'rnak bo'ladigan yana bir xislati bor. Navoiy asarda til masalalarini adabiyotdan – badiiyatdan ajratib, alohida holda tekshirmaydi, tildagi xususiyatlarni badiiy nutq talabiga muvofiq holda ko'radi. Agar bu asarni chuqurroq o'rganib chiqsak, hozirgi til va adabiyot ilmidagi kemtiklikning sabablarini seza boshlaymiz"¹. Bundan boshqa ko'plab asarlarda ham A. Navoiy so'z, ma'no va badiiyat masalalariga katta mas'uliyat bilan qaragan.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida XX asrning birinchi yarmida badiiy asar tilini ilmiy asosda o'rganishning boshlanishi ikki ulkan alloma – adabiyotshunos va adib Izzat Sulton hamda benazir tilshunos Ayub G'ulomov nomlari bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Ular badiiy tilni o'rganishning adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy- nazariy asoslari, tamoyillrini ko'rsatib berishga harakat qilganlar.²

Badiiy asar tili, badiiy nutq stilistikasi haqida gap ketganda, R. Qo'ng'urov, I. Qo'chqortoyev, B. Yo'ldoshev, X. Doniyorov, B. Umurqulov, S. Mirzayev, E. Qilichev, S. Karimov, N. Mahmudov kabi ko'plab olimlarnig nomarini tilga olish mumkin.³

Tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo'lish o'rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo'nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo'nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko'rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig'idagi murakkab muammodir. Badiiy matnning lingvopoetik jihatdan tadqiq etishdagi muhim va o'zak nuqtalar sifatida matn tarifi, tipologiyasi va matn birliklari,

¹Qodirov M. Navoiyning tilshunoslikdagi mahorati // Tilshunoslikning dolzarb masalalari (O'zMU ilmiy maqolqlar to'plami). - Toshkent: Yniversitet, 2002, 85-bet

² Sultonov I. Badiiy asar tili // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1939, 5-son; G'ulomov A. Badiiy adabiyotning tili haqida // Adabiyot va san'at, 1941, 5-son.

³ Qarang: Qo'ng'urov R. O'zbek tili stilistikasidan ocherklar. - Samarqand, 1975; Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. - Toshkent, 1975; Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. - Samarqand, 1982.; Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. - Toshkent: Fan, 1982.; Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. - Toshkent: Fan, 1990; Mahmudov N. O'zimiz va so'zimiz. - Toshkent, 1987. Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati. - Toshkent: O'zadavnashr, 1962.

badiiy matn va unga lingvopoetik yondashuv tamoyillari, badiiy matnda til vositalarining poetik aktuallashuvi e'tirof etiladi.

M.Yo'ldoshev matnlarni hajm belgisiga ko'ra hamda ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplariga ajratadi.” Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi.⁴ Badiiy matnda muallifning o'quvchi yoki kitobxonga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda turadi. Nobadiiy matnda esa asosiy maqsad o'quvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, nobadiiy matnda muayyan axborotning mazmuni va uning ifodasi birlamchi bo'lsa, badiiy matnda bunday axborot birlamchi emas, balki shu axborot vositasida aytilmoqchi bo'lgan fikr –g'oyaning estetik ta'sirli ifodasi mutlaqo hal qiluvchidir. Badiiy va nobadiiy matn tiplari bir - biridan, eng avvalo, ularda tilning estetik vazifasining salmog'iga ko'ra farqlanadi.

⁴Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent: "Fan", 2008,12-15-betlar

Metodologiya. Tadqiqotda tavsifiy-analitik, lingvopoetik tahlil, sathiy tahlil (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik), tarixiy-tipologik yondashuvlar asosida ishlov berildi. Asosiy metod sifatida badiiy matnni sintagmatik va paradigmatic munosabatlar asosida tahlil qilish yo'li tanlandi. Shuningdek, klassik va zamonaviy tilshunoslikdagi ilmiy qarashlar tahlil qilinib, o'zbek adabiyoti namunalari lingvopoetik mezonlarda ko'rib chiqildi. Ammo shuni aytish kerakki, "tilning estetik vazifasi" atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Badiiy matndagi estetik qimmatni undagi birliklarning sintagmatik munosabati yoki yana ham kengroq qaraladigan bo'lsa, birliklarning gorizontal ketma-ketligi (tilshunoslikda "linear"-chiziqli munosabat ham deyiladi) asosida baholash qiyin. Nobadiiy matnni esa undagi birliklarning ayni sintagmatik munosabati yoki gorizontal ketma - ketligining o'zidan kelib chiqib, bemalol idrok etish, tushunish mumkin. Badiiy matndagi estetik qimmatni undgi birliklarning sintagmatik munosabati yoki yana ham kengroq qaraladigan bo'lsa, birliklarning gorizontal ketma - ketligi asosida baholash qiyin. Nobadiiy matnni esa undagi birliklarning ayni sintagmatik munosabati yoki gorizontal ketma - ketligining o'zidan kelib chiqib, bemalol idrok etish, tushunish mumkin.

Tildagi estetik vazifani ishga solish uchun ijodkor o'z badiiy niyatiga muvofiq ravishda tildagi bitmas - tunganmas ifoda imkoniyatlaridan istaganini tanlaydi. Bunday imkoniyat esa tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va yana yuqori sathlarining barchasida mavjud. Har bir sath birliklarining va sathlararo birliklarning turli kombinatsiyalari asosida badiiy-estetik butunlik sari boradi. Ijodkor hech qachon muayyan bir sathga oid estetik imkoniyat bilan chegaralanib qolmaydi. Badiiy matnda ifoda imkoniyatlari va usullarining rang - barangligi, o'ziga xosligi va betakrorligi ham bunday matnning ijobiy sifatleri tarzida baholanadi. Badiiy matnda tilning nafaqat zamonaviy, balki zaruriyatga ko'ra tarixiy unsurlar ham estetik vazifa bajarishi mumkin.

Demak, tilning estetik vazifasi butun o'ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifaga ham asoslangan, uni transformatsiya qilgan, badiiyat manfaatlariga

to'lasicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy matnda namoyon bo'ladi. Umumxalq tilidagi barcha sath birliklari badiiy matnda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi.

Natijalar. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. **Lingvopoetika** badiiy matn tilining estetik ifoda vositalarini o'rganadigan fan sifatida o'z predmeti va kategoriyalariga ega ekani aniqlandi.
2. Badiiy asar tilida **fonetik** birliklar (ohang, takror, aliteratsiya) hamda **leksik** vositalar (metafora, antonimiya, sinonimiya) orqali estetik ta'sir kuchi oshiriladi.
3. **Sintaktik** sathdagi vositalar (inversiya, ellips, takror) matn kompozitsiyasiga dinamiklik bag'ishlaydi.
4. O'zbek lingvopoetikasi taraqqiyotida Alisher Navoiy, Izzat Sulton, R. Qo'ng'irov, E. Qilichev, S. Karimov kabi olimlar va mutafakkirlarning ilmiy yondashuvlari muhim o'rin tutadi.
5. Lingvopoetik tahlil — matnni nafaqat mazmunan, balki shaklan ham tushunish imkonini beradi.

Ma'lumki, yozuvchi yoki so'zlovchining badiiy matn tuzishdan asosiy maqsadi kitobxonga estetik ta'sir qilishdan iborat bo'ladi. Ammo ayni paytlarda yozuvchi yoki so'zlovchi mazkur maqsadi doirasida ifodaning mazmunini shakllantirishda quyidagi niyatlarni ham ko'zda tutishi mumkin: 1) o'zining yoki qahramonning boshidan o'tgan biror voqea - hodisa haqida hikoya qilish, xotiralari haqida so'zlash; 2) qahramon qiyofasi va ichki dunyosi yoki voqealar bo'lib o'tgan joy, muhitni batafsil tasvirlash; 3) biror voqea - hodisaning ishonarliligini ta'minlash uchun turli dalil va izohlar keltirish, ayrim hodisalar mohiyatini izohlash; 4) kimgadir pand - nasihat qilish, hayotiy voqealar orqali tarbiyalash, yo'l ko'rsatish, turli tavsiyalar berish; 5) biror bir voqea-hodisa haqida xabar berish, ogohlantirish, eslatish; 6) buyruq va turli ko'rsatmalar berish, niyat - istak bildirish; 7) qahramonning ichki kechinmalarini, emotsional holatini, voqelikka hissiy munosabatini aks ettirish.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, badiiy matnnig quyidagi mazmuniy turlarini farqlash mumkin: 1. Hikoya mazmunli matn 2. Tasviriy matn 3. Izoh mazmunli matn 4.

Didaktik matn 5. Xabar mazmunli matn 6. Buyruq –istak mazmunli matn 7. Hissiy ifoda mazmunli matn. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu turlarning faqat bittasi asosida shakllantirilgan badiiy matnni kamdan – kam hollarda uchratish mumkin. Badiiy asar tarkiblanish jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o'ta murakkab tuzilishga ega bo'lganligi bois, unda matnning barcha mazmuniy turlarini yoki ma'lum bir turning ayrim xususiyatlarinigina uchratish mumkin. Shuning uchun biror asarning matn turini aniqlashda asarning umumiy ruhiga va yozuvchining asl maqsadiga e'tibor qaratish lozim.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, matnning maqsad - mohiyatida tilning ikki muhim vazifasi: kommunikativlik yoki estetik-emotsionallik kabi jihatlar namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra matnning ikki oppozitiv jihatdan farqlash zarur, ya'ni 1) badiiy matn va 2) nobadiiy matn. Asosiy maqsad - mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad - mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish mumkin. Badiiy matnda muallifning o'quvchi yoki kitobxonga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda tursa, nobadiiy matnda muallifning asosiy maqsadi o'quvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, nobadiiy matnda muayyan axborotning mazmuni va uning ifodasi birlamchi bo'lsa, badiiy matnda bunday axborot birlamchi emas, balki shu axborot vositasida aytilmoqchi bo'lgan fikr-g'oyaning estetik ta'sirli ifodasi mutlaqo hal qiluvchidir. Shuningdek, badiiy va nobadiiy matn tiplari bir- biridan, eng avvalo, ularda tilning estetik vazifasining salmog'iga ko'ra farqlanadi. Shu o'rinda yana bir masalaga to'xtalib o'tish lozim. Tildagi estetik vazifani ishga solish uchun ijodkor o'z badiiyniyatiga muvofiq ravishda tildagi bitmas-tuganmas ifoda imkoniyatlardan istaganini tanlaydi. Bunday imkoniyat esa tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va yana yuqori sathlarning barchasida mavjud. Har bir sath birliklarining va sathlararo birliklarining turli kombinatsiyalari asosida badiiy – estetik butunlik sari boradi. Ijodkor hech qachon muayyan bir sathga oid estetik imkoniyat bilan chegaralanib qolmaydi. Badiiy matnda tilning nafaqat zamonaviy, balki zaruriyatga ko'ra tarixiy unsurlari ham estetik vazifaning xizmatida bo'ladi.

Muhokama. Badiiy matn tilining lingvopoetik tahlili uni estetik butunlik sifatida anglashda kalit vazifasini bajaradi. Har bir sath birlik (tovushdan tortib kompozitsiyagacha) o'z estetik yuklamasiga ega. Bu jihat lingvopoetika fanining qamrovini kengaytiradi va uni mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllantiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, adib badiiy obraz yaratishda til birliklarini shunchaki vosita sifatida emas, balki estetik konstrukt sifatida ishlatadi. Bunday yondashuv matnning ichki estetik tuzilishini tahlil qilish imkonini beradi. Demak, tilning estetik vazifasi butun o'ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifaga ham asoslangan, uni transformatsiya qilgan, badiiyat manfaatlariga to'lasicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy matnda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi. Badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

Xulosa. 1. Badiiy asar, demakki, badiiy matn ham shaklan, ham mazmunan mutlaqo o'ziga xos bo'lgan murakkab va serqatlam estetik butunlikdir. Unda mazmun qanchalik muhim bo'lsa, shakl ham shunchalik favqulodda ahamiyatlidir. Ba'zan shakl hatto mazmun darajasiga ko'tarilishi, mazmun maqomini olib, haqiqiy mazmunning qimmatiga (badiiyat maqsadi bilan) daxldor bo'lishi ham mumkin. Badiiy matnda muallifning mazmunni shaklga solish mahorati, bundagi individual xususiyatlar alohida qimmatga ega. Ammo badiiy matnda shakl birlamchi, mazmun esa ikkilamchi deb bo'lmaydi, ularning har ikkisi ham muhim, faqat ular orasidagi dialektik munosabatning namoyon bo'lish tarzi butunlay o'ziga xosdir. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, eng avvalo, ana shu jihat, ya'ni shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida to'liq nazarda tutilishi lozim⁵. Shakl va mazmunning ochiq yoki yashirin muvofiqligi muallif badiiy niyatining aniq va to'la namoyon bo'lishi uchun jiddiy zamindir.

2. Badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari tekshirilayotganda undagi har bir til hodisasiga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Chunki har qanday asar makon va zamon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. O'rganilayotgan matn

⁵. O'rinboyev B. va boshq. Badiiy tekstning lingvistik tahlili .-Toshkent: O'qituvchi, 1990, 13-21-betlar

tilini umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir. V.V. Vinogradov “Badiiy adabiyot tili haqida” (1959) nomli asarida ta’kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan va adabiy til tarixidan tamoman ajratilgan holda o’rganish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. *Muhokamat ul-lug‘atayn*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1980.
2. Sulton, I. *Adabiyot va hayot*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1964.
3. Qo‘ng‘irov, R. *Til va uslub masalalari*. – Toshkent: Fan, 1985.
4. Qilichev, E. *Badiiy asar tili*. – Toshkent: Fan, 1992.
5. Karimov, S. *Matn lingvistikasi asoslari*. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Doniyorov, X. *Badiiy matnning lingvistik strukturalari*. – Toshkent: Fan, 2018.
7. Mahmudov, N. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: Universitet, 2004.
8. Rahimqulova, L. (2024). Jahon tilshunosligida ijtimoiy tarmoq yozishmalarining tadqiqi: Jahon tilshunosligida ijtimoiy tarmoq yozishmalarining tadqiqi. *MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS OF APPLIED MATHEMATICS*, 1(01). Retrieved from <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/mp/article/view/666>